

# ORIENTAL JOURNAL OF ACADEMIC AND MULTIDISCIPLINARY RESEARCH



Volume 2 Issue 1  
January  
**2024**

**ISSN 3030-3079**

 [www.inno-world.uz](http://www.inno-world.uz)

 +998 94 5668868



## PIRLS XALQARO TALABLARI ASOSIDA O'QUVCHILARNI O'QISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH

**G'aniyeva Nilufaroy**

ADPIning "Pedagogika" fakulteti  
BT yo'nalishi 3-bosqich 302-guruh talabasi

### **ARTICLE INFO**

Received: 16<sup>th</sup> January 2024

Accepted: 16<sup>th</sup> January 2024

Online: 16<sup>th</sup> January 2024

### **KALIT SO'ZLAR**

Xalqaro baholash dasturlari, PIRLS, ta'lif sifatini baholash milliy markazi, o'qish savodxonligi, tushunish darajasi, ta'lif tizimi.

PIRLS [Progres in International Reading Literacy Study – xalqaro o'qish savodxonligini o'rghanishdagi yuksalish] – bu turli mamlakatlarda boshlang'ich sinfda tahsil oluvchi o'quvchi yoshlarning matnni o'qish va tushunish darajasini baholab beruvchi xalqaro baholash tizimidir. Ushbu sinov turi har 5 yilda bir marta o'tkazishga mo'ljallangan.

PIRLS xalqaro tadqiqoti boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma'lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o'qish va o'qitishni yaxshilashda ta'lif sohasidagi davlat siyosatiga xizmat qilishi mumkin bo'lgan tahlillarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturi hisoblanadi. Hozirgi vaqtida PIRLS ta'rifiqa ko'ra, o'qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma'no hosil qila olish qobiliyati hamdir.

Tadqiqot doirasida asosiy e'tibor tushunishni namoyon qilishdan o'zlashtirilgan ma'lumotlarni qanday qilib yangi loyihalar va vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatlarini namoyon qilishga qaratilmoqda.

O'quvchi bu jarayonning faol qatnashuvchisi bo'lib, ma'no yaratadi, matn ustida mushohada yuritadi va samarali o'qish strategiyalarini ongli ravishda tanlab qo'llaydi. Har bir matn turi odatiy shakl va qoidalarga amal qilgan holda o'quvchiga matnni sharhlashga yordam beradi. Bular an'anaviy kitoblar, jurnallar, hujjatlar va gazetalar, shuningdek, raqamlı ko'rinishdagi yozma shakllarni ham o'z ichiga oladi.

PIRLS boshlang'ich sinf o'quvchilarining sinf va sinfdan tashqari o'qishini baholashda ikkita keng qamrovli maqsadga, ya'ni "badiiy tajriba orttirish", "axborotni olish va undan foydalanish"ga qaratiladi. O'z navbatida,

### **ANNOTATSIYA**

Maqolada xalqaro baholash dasturi pirlsning mazmun mohiyati, talablari va o'qish savodxonligini rivojlantirishdagi o'rni haqida fikrlar bildirilgan. Xalqaro tadqiqotning maqsadi turli xil ta'lif tizimidan iborat bo'lgan davlatlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnni o'qish va qabul qilish bo'yicha tayyorgarligi hamda o'quvchilarining har xil yutuqlarga erishishga sabab bo'lувчи ta'lif tizimidagi o'ziga xos xususiyatlarni aniqlash va baholashdan iborat hisoblanadi.

ushbu maqsadlarning har biri to'rtta keng tushunish jarayonini birlashtiradi.

Bular:

- diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarni toppish;
- to'g'ridan-to'g'ri xulosalar chiqarish;
- kontent va matn elementlarini baholash va tanqid qilish;
- g'oyalar va axborotni talqin qilish va uyg'unlashtirish.

PIRLS xalqaro baholash dasturida 4-sinf o'quvchilari qatnashadilar. Savollar ham shu yosh doirasida tuziladi va ular uchun qiziqarli bo'lgan ma'lumotlar ham kiritiladi.

PIRLS tadqiqotida o'qish savodxonligining darajalari quyidagicha tavsiflanadi:

Eng yuqori daraja (625 ball va undan yuqori) – O'quvchilar matnni yaxlit o'zlashtira oladi va ayni paytda uning alohida qismlarini bir-biri bilan bog'liq holda tushunadi. Muallifning g'oyasini izohlashda o'z fikrini asoslash uchun matnga tayana oladi.

Yuqori daraja (550 ball) – O'quvchilar matnning ahamiyatli xabarlarini tushunadi, matnga asoslanib o'z xulosalarini chiqaradi, matn mazmuniga ham, shakliga ham baho bera oladi, uning ayrim til xususiyatlariga e'tibor qarata oladi.

O'rta daraja (475 ball) – O'quvchilar matndan axborot topa oladi, matn shakli va tilining ba'zi xususiyatlaridan foydalanib, matnga asosan o'z xulosalarini chiqaradi.

Quyi daraja (400 ball) – O'quvchilar matnda aniq berilgan va cheklash oson bo'lgan xabarni ajratib oladi.

PIRLS xalqaro tadqiqoti o'qish savodxonligini tadqiq etishda Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasining (IEA) o'quvchilarning matematika va tabiiy yo'naliishdagi fanlardan o'zlashtirish darajasini baholash tadqiqotiga (Trends in International Mathematics and Science Study-TIMSS) qo'shimcha tarzda ishlab chiqilgan. PIRLS xalqaro tadqiqoti o'qish savodxonligini tadqiq etishda Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasining (IEA) Boston kollejida olib boriladigan TIMSS va PIRLS xalqaro tadqiqot markazi tomonidan IEA xalqaro assotsiatsiyasining Amsterdam va Hamburg shaharlardagi idoralari bilan yaqindan hamkorlikda boshqariladi. O'qish savodxonligining rivojlanishi har bir o'quvchining o'sib-ulg'ayishi, ta'lim olishi va kundalik hayotida muhim ahamiyat kasb etgani bois, o'qish savodxonligini tadqiq etishda Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasining (IEA) qariyb 60 yil mobaynida o'quvchilarning o'qib tushunish ko'nikmalarini muntazam ravishda xalqaro miqyosda baholab, ularning o'qib o'rganishlari uchun zarur sharoitlarni yaratishga harakat qilmoqda. Ushbu assotsiatsiya (IEA) turli ta'lim tizimiga ega ishtirokchi mamlakatlarda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarni yanada teran tushunish maqsadida 1960-yillarda ta'lim sohasida qo'lga kiritilgan yutuqlarni xalqaro miqyosda qiyosiy tahlil qiluvchi hukumat agentliklari va milliy tadqiqot institutlaridan tashkil topgan

"PIRLS 2021 Baholash qamrov doirasi."

Har bir PIRLS baholash tadqiqoti ota-onalar yoki vasiylar, maktablar, o'qituvchilar, mamlakatlar va o'quvchilar uchun mo'ljallangan qator so'rovnomalari hamda o'quvchilarning o'qib o'zlashtirish ko'nikmalarini baholashdagi o'zgarishlarni zamonaviy tarzda tahlil qiladigan ayni shu an'anani davom ettiradi. O'quvchilarning o'qishni o'rganish va ta'lim olishdagi imkoniyatlari haqidagi so'rovnoma ma'lumotlari erishilgan natijalarni talqin qilish uchun muhim ma'lumotlarni taqdim etadi.

Biz bilamizki, maktablarda darsliklar yangilanmoqda. Yangi darsliklar yangicha g'oyalar, yangicha yo'nalish asosida tuzilmoqda. Bunda xalqaro baholash dasturlariga javob beruvchi mashqlar, topshiriqlar ham berilgan. Bu esa bizning yangi avlod kelgusidagi tadqiqotlardan yaxshi natjalarga erishishiga yordam beradi. Biz o'qituvchilarning vazifamiz esa o'quvchilarni to'g'ri yo'naltirish, ularning dunyoqarashini, fikrlash doirasini kengaytirishda ko'maklashish. Boshlang'ich sinflarni o'qitishni boshlaganda dars davomida o'quvchilarga o'qib tushunish savodxonligini ham rivojlantirib borishimiz zarur.

O'qish savodxonligi-shaxs o'zining bilim va salohatiyani rivojlantirish, jamiyatda o'z o'rnini topish maqsadiga erishishi yo'lida matnlarni tushunish, ulardan foydalanish, ular ustida mulohaza yuritish hamda ularga munosabat bildirish qobiliyati ham hisoblanadi. Boshlang'ich[2] savodxonlik tushunchasi o'qish va yozishni dastlabki o'rganish uchun ishlataladi. Savod o'rgatish jarayonidagi o'qish darslarining asosiy vazifasi o'quvchilarga tovush va harflarni tanishtirish ularni to'g'ri talaffuzini o'rgatish orqali bolalarda to'g'ri, ongli, ifodali o'qish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Shuningdek o'quvchilar lug'atini boyitish, bog'lanishli nutqini o'stirish, bilimini boyitish, tafakkurini shakllantirish, eshitish, qabul qilish sezgisini o'stirishda ham ma'sulyatliligi bilan alohida o'rinn tutadi. Yuqoridaqilarni hisobga olgan holda ta'lim olish imkoniyati savodxonlikka bog'liq bo'ladi. Boshlang'ich[3] sinf o'quvchilarida matnni o'qish va tushunish malakasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Matnni o'qish va tushunishga o'quvchilar 1-sinfdan boshlab o'rgatiladi. Ularni xalqaro baholash darajasini belgilovchi PIRLSga qanday tayyorlash kerak degan savol tug'ilishi tabiiy.

[2] Karima Qosimova, Safo Matjonov " Ona tili o'qitish metodikasi" Toshkent "Nosir" nashr 2009

[3] JDPI o'qituvchisi Abduraxmonova Dinora " Boshlang'ich sinf o'quvchilarini PIRLS dasturiga o'rgatish".

Boshlang'ich sinf darsliklari va internetdan o'quvchining yoshiga mos kichik hikoya va ertaklarni, she'rlarni yoki axborot matnlarini olib, o'qish darslarida hamda darsdan tashqari qo'shimcha mashg'ulotlarda matnni ifodali o'qish, matnning mazmunini tushunish malakalari shakllantirilib boriladi. Ayrim matnlar uyga vazifa qilib ham berilishi mumkin. Berilgan topshiriq matnlari asosida keyingi dars mashg'ulotida savol-javob va tahlillar o'tkaziladi. Matnni o'qigach, o'quvchilar matn mazmunini tushunish, xulosalar

chiqarish, matn mazmunini tushuntirib berish, ma'lumotlarni izohlash, tahlil qilish, matn mazmunini baholash, matnda berilgan so'zlarni tahlil qilish, matn qurilishi yuzasidan berilgan savollarga javob bera olish ko'nikmalariga ko'ra tafsiflanadi.

PIRLS dasturida 4-sinf o'quvchilarining an'anaviy matnlarni tez, ravon, ifodali o'qiy olishi emas, balki darslikdan tashqari berilgan matnlarni o'qib, uni qanchalik tushunishi va talqin qila olishi hamda fikrlarini ravon tilda yozma bayon eta olish ko'nikmalari baholanadi.

#### XULOSA:

Xulosa qilib aytganda biz pedagoglar uchun bugungi kunda juda ko'p vazifalar yuklatilgan, shu jumladan pedagogik maxoratga ega bo'lish, axborot texnologiyalaridan foydalana olish, bola psixologiyasini bilish va darsning samaradorligini oshirish uchun turli xil metodlardan foydalana olish kerak. Shulardan xulosa chiqargan holda o'qish savodxonligini oshirish uchun ham dars davomida PIRLS savollariga tayyorlab boorish zarur. O'qish darslarida, ona tili darslarida biror hikoya yoki ertakni o'quvchilar o'qigandan so'ng mustaqil fikrlarini doimiy eshitib boorish kerak va bu ham o'z navbatida o'quvchi agar noto'g'ri fikrlayotgan bo'lsa sinfdoshlarining yoki o'qituvchining to'g'ri fikrlarini eshitib o'zi uchun kerakli xulosalarni oladi. Chunki har bir o'quvchining fikrlesh doirasi, dunyoqarashi har xil bo'ladi. Shu jumladan o'quvchilarning dunyoqarashini o'stirish, bilim ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida badiiy kitoblarni tavsiya qilish ham maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu bolaning ongini o'sishiga va o'qib tushunish qobilyatini rivojlanishiga ham katta yordam beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. "PIRLS 2021 Baholash qamrov doirasi."
2. Karima Qosimova, Safo Matjonov " Ona tili o'qitish metodikasi" Toshkent "Nosir" nashr 2009
3. JDPI o'qituvchisi Abduraxmonova Dinora " Boshlang'ich sinf o'quvchilarini PIRLS dasturiga o'rgatish".

Internet ma'lumotlari

1. Wikipedia.uz
2. Buxdu.Uz
3. Gazeta.uz
4. Ta'lim sifati. PIRLS tadqiqoti telegram kanali